



## O'ZBEK MILLIY ASKIYA SAN'ATI FAOLIYATINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Professor, (DSc) A.Kambarov

Magistr O.Tojimamatova

Farg'ona davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15280598>

### ARTICLE INFO

Received: 18th April 2025

Accepted: 20<sup>th</sup> April 2025

Published: 25<sup>th</sup> April 2025

#### KEYWORDS

*o'zbek milliy askiya san'ati, tarixiy rivojlanish, madaniy an'analar, ijodkorlar, ijtimoiy ahamiyat, metodologiya, xalq san'ati.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada "O'zbek Milliy Askiya San'ati Faoliyatining Nazariy-Metodologik Asoslari" mavzusi chuqur o'rganiladi. Ushbu tadqiqotda o'zbek milliy askiya san'ati, uning tarixiy rivojlanishi, madaniyatdagi o'rni va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, uning ijrochilari tomonidan kiritilgan yangiliklar va usullar ko'rib chiqiladi. Askiya san'ati xalq orasida musiqiy, kulgili va ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda milliy va madaniy an'analar saqlanib qolgan. Tadqiqotning metodologik asoslari ham an'anaviy va zamonaviy usullarni birlashtirib, o'zbek xalqining madaniy merosini chuqur o'rganish uchun yangi yondashuvlar borasida fikr yuritilgan.*

### KIRISH

Har bir xalqda hazil mutoyiba, bahslashuv, aytishuv janrlari bo'lib, o'zbek xalqida bulardan tashqari askiya janri ham keng rivojlangan. O'zbek xalqining askiyasining boshqa hazil mutoyibalardan farqi shundaki, u bugungi kunda san'at darajasiga ko'tarila olgan janrlardan biridir. Askiya o'zbek xalq og'zaki ijodining bir turi, xalq qiziqchiligining tarkibiy qismi, keng tarqalgan tomosha san'ati hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan xalq og'zaki ijodi bo'lgan milliy Askiya va qiziqchilik san'atini keyingi avlodga yetkazish bugungi kunda dolzarb muammolardan biridir. Shu ishlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ning 11.07.2023 yildagi PQ-222-sonli "Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san'atini yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori muhim ahamiyatga ega.<sup>1</sup>

Askiya arabcha so'z bo'lib, zakiy – o'tkir zehni, hozirjavob ma'nolarni anglatadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi turi. Folklor janri, ikki va undan ortiq kishi yoki guruhning xalq yig'inlarida (sayl, toy, bayramlar) ma'lum mavzu bo'yicha badiiy so'z tortishuvidir.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.07.23 йилдаги ПҚ.-222-сонли “Республикада миллий аския ва кизикчилик санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.

<sup>2</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2000. –Б. 456

Askiyaning mazmunli serzavq, kulgili chiqishida taraflardan hozirjavoblik, badiha-g'oylik, shuningdek, mavzuga oid so'zlarni topa olishi va harakatlaridan o'rinli foydalanish talab etiladi. Hozirjavoblik, ziyraklik va donishmandlikni, shu bilan birga, til va so'z boyligini, badiiy-estetik didni talab etadigan askiyada ikki yoki undan ortiq kishi yoki ma'lum bir guruh orqali munozaraga kirishiladi. Aytalayotgan askiya bironing shaxsiyatiga tegib ketmasligi uchun har bir so'z va iborani ishlatishda ijrochi nihoyatda ehtiyotkor bo'lishi zarur. "Ma'lumki, o'zlini anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi"<sup>3</sup> (Karimov I.A., Yuqoriga ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B. 83). Ana shunday ruhiy-ma'naviy borliqni ifodalovchi milliy qadriyatlarimizdan biri askiya janri deb bimalol aytishimiz mumkin. Chunki, askiyachi tilning keng imkoniyatlarini puhta egallagan, so'z o'yini, qo'chirim, hazil-mutoyiba, kinoya tashbih, kesatiq, uxsatish, mubolag'a kabi havj san'ati vositalaridan ustalik bilan to'la foydalanish zarur. Askiya san'ati ning vazifasi kulgi orqali kishilarning kayfiyatini ko'tarish, ularga zavq baxshida etish, ma'lum mavzu doirasida ularning bilimlarini yanada kengaytirish, aqlini, fikrini charxlash, ziyrak, hozirjavob bo'lishga da'vat etish, shu bilan bir qatorda turmishda va ayrim kishilar xulqidagi kamchiliklar ustidan engil kulgu uyg'otishdir. Askiya o'zbeklar orasida ko'p asrlardan beri mavjud bo'lib, to'y yig'inlarda, sayillarda ikki tomonning tortishuvi natijasida badiiy so'z ustalari aniqlangan. Askiya alohida janr sifatida, asosan, XV asrdan boshlab shakllangan.

Askiya janri bo'yicha deyarli yozma adabiyotlar kam. Mazkur janr ustoz-shogird an'anasiga tayanib, bugungi kungacha etib kelgan. Ma'rifat jonkuyari bo'lgan hassos shoir Cho'lpon 1936 yilda "G'uliston" jurnalida e'lon qilingan "Qiziq" maqolasida aynan ana shu masalaga to'xtalib, vaqt kutib turmasligini, mashhur qiziqning har biri xalq teatrlarining namoyon bo'lish shakli ekanligini alohida uqtirgan, tez orada ular xalq xotirasidan o'chib ketish xavfi ostida ekanidan ogohlantirgan edi. Shunday bo'lsa-da, Askiya san'atini o'rganishga qiziqish 1960-yildan e'tiboran boshlanadi. Shungacha Sharif Rizo ning 1940 yili "G'uliston" jurnalining №4-sonida bosilgan "Xalq san'atkorlari" maqolasi bilan A.L.Troitskayaning "O'zbekiston xalq teatri" qo'lyozmasida askiyaga bag'ishlangan bir bo'limcha hamda o'zbek satirasi muammolariga bag'ishlangan ayrim maqolalar, shuningdek, 1960 yili nashr etilgan To'lqin Obidov ning "Yusufjon qiziq" risolasi bo'lgan.

Rasul Muhammadiev Askiya san'atini birinchilardan bo'lib, uni ilmiy asosda atroflicha o'rganishgan olimlaridan biridir. Uning izlanishlari natijalari 1962 yili bosilgan Askiya nomli ilmiy ishida va 1970 yili chop etilgan Askiya to'plamida umumlashtiriladi.

1962-1965 yillarda Farg'ona vodiysi an'anaviy teatrini o'rganish bo'yicha uyushtirilgan ekspeditsiyalar davrida olimlar qatorda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, san'atchunoslik fanlari doktori, professor Muhsin Qodirov ham askiyani ilmiy tadqiq etish va yozib olishga katta e'tibor beradi va 1991 yilda o'zining Yusufjon qiziq nomli risolasini yozadi. Askiyani ilmiy jihatdan o'rganishda Rasul Muhammadievning Askiya to'plami (1970), Muhsin Qodirovning O'zbek xalq tomosha san'ati (1981), Tomosha san'atining o'tmishidan lavhalar (1983), O'zbek an'anaviy teatri (2010) kabi asarlari, Kulg'u ustalari o'quv qo'llanmasi (2008), Hasanboy Sultonovning Askiya (1998), Said Anvarning Abdulla qiziq nima deydi? (2006), Ubaydulla Abdulla va Iskandar Rahmonning Kulg'anlar darmonda, kulmaganlar armonda (2007) kabi risolalari, Filologiya fanlari doktori Hikmatullo D'osmatovning Askiya matnining lingvostilistikasi (2015) monografiyasi, Askiya – so'z o'yinlari san'ati (2021) hamda O'zbekiston xalq artisti, professor Sultonali Mannopovning Askiya va qiziqchilik san'ati kabi kitoblari, shuningdek, falsafa fanlari doktori, professor Abdumutal Qambarovning O'zbek askiya san'ati maqolalari o'zbek milliy Askiya san'atini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

<sup>3</sup> Каримов И.А. Юсак маънавият – энгилмас куч. –Тошкент: Маънавият. 2008. –Б.

Har bir san'at o'ziga xos tarixga ega bo'lgandek, o'zbek milliy askiya san'ati ning rivojlanish jarayoni takomil bosqichlari uzoq tarixga borib taqaladi. O'tmishda ajdodlarimiz bozorlarda, choyxonalarda, toy-hasham va mahalla guzarlarida yig'ilishganda hazil-mutoyibalar, latifa va askiyalar bilan davrani qizitganlar. O'zbek milliy askiya san'ati maktabining tarixi juda uzoqqa borib taqalishi ham shundan aslida. Unda asosan so'zg'a, uning matniga, ta'sirchanligiga, yuqori badiiyatga e'tibor qaratiladi. Mazkur san'atda jamiyatdagi, insonlardagi kamchilik va kusurlarni hajv orqali tanqid qilish asosiy rol o'ynaydi.

Har bir xalqda hazil-mutoyiba, bahslashuv, aytishuv, askiya bor. O'zbek xalqi askiyasining boshqa hazil-mutoyibalardan farqi shundaki, u san'at darajasiga ko'tarila olgan. Askiya o'zbek xalq og'zaki ijodining bir turi, xalq qiziqchiligining tarkibiy qismi, keng tarqalgan tomosha san'ati hisoblanadi.

O'zbek milliy askiya va qiziqchilik san'ati haqida gap ketganda Yusufjon qiziq Shakarjonov, Muhiddin qiziq Darveshov, Oxunjon qiziq, Abdulxay Maxsumlarni eslab o'tish o'rinli. Tabiiatan juda yuqori iqtidor egasi bo'lgan bu insonlar xalq ichidan olingan gaplar bilan odamlar yuziga tabassum ulasha olganlar. Xususan, Muhiddin qiziqning latifalari shunchaki kulish uchun emas, balki hayotdagi muammolarni qamrab olganligi bilan ham ahamiyatli va e'tiborga molikdir.

Askiya haqida fikr yuritishdan avval uning mohiyati haqida qisqacha mulohaza bildirish joiz. Askiya aytish qanchalar murakkab bo'lsa, uni tushunish ham oson emas. Chunki askiyachi aytgan askiyada nozik so'z o'yini qo'llaniladi. So'z o'yinini tushunish esa uni o'ylab topishdek qiyin. So'z o'yinida uni o'ylab topgan odamning fikrlash usulini qo'llash lozim bo'ladi. Shu bois askiya paytida kimdir kuladi, kimdir gap nima to'g'risida boryotganini anglay olmay garang bo'lib turaveradi. Askiya janrining bosh maqsadi, uning mohiyati so'z o'yini vositasida kulgi hosil qilishdir.

Askiya jahondagi bironta xalq og'zaki ijodida uchramaydi, so'zdans o'z hosil qilish, so'z jilosidan to'liq foydalanish, so'z o'yiniga asoslangan janrdir. Boshqa xalqlarda bu janrning uchramasligi esa, asosan, o'zbek tilidagi so'z boyligi bilan izohlanish maqsadga muvofiqdir. Xususan, maqol, topishmoq, ertak, qo'shiq, doston janrlari jahon xalqlari ijodida aynan yoki bir oz o'zgargan holda uchraydi, ammo olimlar shu kungacha askiyaning boshqa xalqlarda mavjudligini aniqlamaganlar.

So'z san'atkori – askiyachilar so'z o'yini vositasida bellashadilar. Bellashuvchilar “raqib” (harif) sifatida sahnaga tayyorgarliksiz chiqadilar. Payrov boshlanishi bilan ma'lum bir mavzu doirasida so'z o'yini vositasida subyektiv munosabat bayon etiladi. So'z ustalaridan lisoniy birliklarning imkoniyatlarini nutqda namoyon eta olish, nutqiy vaziyatda rang-barang ma'noni sirli tarzda ifodalash, hozirjavoblik, ekspromt, so'zamollik va zukkolik talab etiladi. Aks holda, musobaqada “raqib”idan engiladi. Nutqiy vaziyatda voqea-hodisa yoki u dag'idagi fikrga bo'lgan xususiy munosabat ko'pincha ochiq aytilmay, yashirin tarzda ifoda etiladi. Yashirin ma'nolarni so'z o'yiniga o'ragan holda badiiy ifodalash bilan tinglovchini topkir, ziyrak qilib tarbiyalash so'zlovchining madaniy saviyasi yuqoriligidan dalolat beradi. So'kish, haqorat so'zlarni ishlatish, qo'pol, disfemistik bayon madaniy saviyaning pastligidan dalolat beradi. Ayniqsa, askiyachilar tomonidan pornografik tushunchalarni kulgi qo'zg'atuvchi vosita sifatida qo'llash nutqning qashshoqligi, madaniy saviyaning pastligini namoyon etadi. Bu holat bora-bora xalqning zakiylik san'atiga pornografik janr sifatida qarashga olib keladi. O'zbek xalq tilida madaniy saviyaning erte uyg'onganligini shundan bilish mumkinki, ertak, doston, latifalarda pornografik tushuncha ifodalovchi birliklar qo'llanmagan.

Ta'kidlaganimizdek, askiya arabcha so'z bo'lib, “zakiy” – o'tkir zehni, hozirjavob ma'nolarini anglatadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi turi. Folklor janri, ikki va undan ortiq kishi yoki guruhning xalq yig'inlarida (sayl, toy, bayramlar) ma'lum mavzu bo'yicha o'tkaziladigan badiiy so'z tortishuvi. Askiyaning mazmunli, serzavq, kulgili chiqishida taraflardan hozirjavoblik, badiyag'oylik, shuningdek, mavzuga oid so'zlarni topa olishi va harakatlaridan

o'rinli foydalanish talab etiladi <sup>4</sup>[Qambarov A.A., Mannopov S. Najmetdinova M.M. O'zbek san'ati tarixi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Farg'ona. Farg'ona nashriyoti. 2021. – B. 50]. Askiyachi tilning keng imkoniyatlarini puxta egallagan, so'z o'yini, qo'chirim, hazil-mutoyiba, kinoya, tashbih, kesatish, o'xshatish, mubolag'a kabi havj san'ati vositalaridan ustalik bilan to'la foydalana oladigan bo'lishi lozim.

Askiya san'atining vazifasi kulgi orqali kishilarning kayfiyatini ko'tarish, ularga zavq baxshida etish, ma'lum mavzu doirasida ularning bilimlarini yana-da kengaytirish, aqlini, fikrini charxlash, ziyrak, hozirjavob bo'lishga da'vat etish, shu bilan bir qatorda, turmushda uchrab turuvchi ayrim kishilar xulqidagi kamchiliklar ustidan engil kulgu uyg'otishdir.

Askiyachilar mavzu doirasidan chetka chiqmaydilar. Unda an'anaviy payrovlar bo'lmish "O'xshatdim", "Bo'lasizmi", "Gulmisez, rayhonmisiz", "Beda", "Afsana", "Qofiya", "Bilganlar, bilmaganlar", "Laqab"lardan tashqari, zamonaviy mavzular "Paxta", "Oila", "Kino", "Dorbozlik", "Ashula", "Futbol" va hokazolar, o'rin olgan. Payrovda bir mavzu atrofligagina va chuqur ochilishi lozim. Mavzudan chekinish askiyachining mag'lubiyatidan dalolat beradi. Askiyada mavzuning to'g'ri tanlanishi, tushuncha, fikr tizimini izchil ravishda mantiqiy yakunlarga yetkaza olish, badiya g'oylik mahorati, tinglovchilar e'tirofi muhim ahamiyat kasb etadi. Askiya harakat vositalari o'rinli; unda so'z qo'llash mahorati hamda muloqot jarayonidagi tezkorlik, imo-ishoralar uyg'unligi mahsulidir.

Xulosa qilib aytganda, askiya o'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos va betakror janri sifatida xalqning madaniy merosida muhim o'rin tutadi. U, bir tomondan, kulgi va hazil orqali jamiyatdagi kamchiliklarni tanqid qilish, boshqacha aytganda, jamiyatning etik va estetik me'yorlarini ifodalashning vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, ziya va hozirjavoblik, so'z o'yini va nutqiy qobiliyatlarni talab qiladi. Askiya san'ati o'zining yuqori estetik darajasi va til boyligi bilan ajralib turadi, bu esa uning san'at sifatida yuksalishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, askiya xalqning zakiylik va ziyraklik san'ati sifatida o'zining asosiy maqsadiga — kishilarni kuldirish, kayfiyatini ko'tarish, ularni so'z o'yinlari orqali ma'naviy jihatdan boyitish va o'ziga xos bir sharoitda aqliy faollikka chaqirishga xizmat qiladi. Buning uchun askiya ijrochisi yuqori darajadagi til va nutqni egallagan, shuningdek, o'ziga xos hazil-mutoyibalar va badiiy tasvirlarni yaratishga qodir bo'lishi kerak. Aks holda, askiyaning maqsadi va san'ati o'z mazmunini yo'qotadi, chunki u faqat kulgi va hazil emas, balki xalqni o'ylashga, tushunishga va tarbiyalashga chaqiradigan kuchli vosita hisoblanadi. Shunday qilib, askiya o'zbek xalqining og'zaki ijodi va folklorining eng yorqin namoyishlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi va saqlanishi muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qambarov, A.A., Manopov, S., Najmetdinova, M.M. (2021). O'zbek san'ati tarixi. Farg'ona: Farg'ona nashriyoti.
2. Muhammadiev, R. (1962). Askiya. Tashkent: Fan nashriyoti.
3. Qodirov, M. (1981). O'zbek xalq tomosha san'ati. Tashkent: Akademnashr.
4. Qodirov, M. (1983). Tomosha san'atining o'tmishtan lavhalar. Tashkent: Yosh gvardiya.
5. Sulonov, H. (1998). Askiya. Tashkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
6. Anvar, S. (2006). Abdulla qiziq nima deydi?. Tashkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi.
7. Abdulla, U., Rahmon, I. (2007). Kulg'anlar darmonda, kulmaganlar armonda. Tashkent: O'zbekiston nashriyoti.
8. Dósmatov, H. (2015). Askiya matnining lingvostilistikasi. Tashkent: Fan.

<sup>4</sup> Қамбаров А.А., Маннопов С. Нажметдинова М.М. Ўзбек санъати тарихи. Ўқув-услубий қўлланма. —Фарғона. Фарғона нашриёти. 2021. – Б. 50

9. Manopov, S. (2021). Askiya va qiziqchilik san'ati. Farg'ona: Farg'ona nashriyoti.
10. Qambarov, A.A. (2021). O'zbek askiya san'ati. Tashkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi.

